

**TOSHKENT VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**TOSHKENT VILOYATIDA  
XIZMATLAR SOHASINING  
RIVOJLANISHI**

**2023- YILNING  
YANVAR-IYUL OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
**17 006,7 mlrd. so'm**



Xizmatlar sohasida kichik biznesning  
ulushi – **69,7 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – **5 656,3 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 878,4** mlrd. so'mga oshib, **17 006,7** mlrd. so'mga yetdi.


Taqqoslama ekvivalentda 2022-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **107,6 %**ni tashkil etdi. O'tgan yili ushbu ko'rsatkich **112,2 %**ga to'g'ri kelgan.

Diskret qiymatlar bu – qiymatlari faqat ma’lum daqiqalarda, ma’lum vaqt oralig’ida (oy, chorak, yil) belgilangan, o’lchadigan, hisoblangan ko’rsatkichlar.

2022- yil iyul oyiga nisbatan (**2 092,6** mlrd. so’m), 2023- yil iyul (diskret oy) uchun taqdim etilgan bozor xizmatlari hajmi (**2 499,2** mlrd. so’m) **406,6** mlrd. so’mga oshdi.

*Taqqoslash uchun:* 2022- yil iyul oyidagi xizmatlar hajmi 2021- yil iyuliga nisbatan **331,6** mlrd. so’mga oshgan.

### Ko’rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, mlrd. so’m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlar egallaydi. 2023- yil yanvar-iyul oylarida bu xizmatlarning ulushi **33,0** %ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (**22,5** %), moliyaviy xizmatlar (**14,9** %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (**4,4** %), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**3,5** %)da qayd etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %da (2023- yil yanvar-iyul)



2023- yil yanvar-iyul oylarida yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (**24,3 %**), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**23,7 %**), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**16,4 %**), shuningdek, savdo xizmatlari (**5,9 %**) hamda shaxsiy xizmatlar (**4,8 %**)da qayd etildi.

### 2023- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, %da






## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, %da
	2022- y.	2023- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>14 128,3</b>	<b>17 006,7</b>	<b>107,6</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	465,3	585,1	123,7
Moliyaviy xizmatlar	1 855,9	2 531,0	124,3
Transport xizmatlari	3 298,5	3 832,1	100,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>3 012,7</i>	<i>3 613,1</i>	<i>106,0</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	572,3	751,2	103,7
Savdo xizmatlari	4 772,4	5 613,7	105,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	466,0	526,8	104,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	336,9	362,8	100,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	355,0	470,1	116,4
Ijara xizmatlari	408,1	449,6	101,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	319,5	379,3	103,9
Shaxsiy xizmatlar	428,4	516,8	104,8
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	327,3	351,1	98,8
Boshqa xizmatlar	522,7	637,1	114,1


Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.

Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.


Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.



**O'sish sur'ati,**  
%da



**Xizmatlar hajmi,**  
mlrd. so'm






Hozirgi vaqtda Toshkent viloyatida dengiz hamda havo transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Viloyatda davlat hududi bo'ylab kesib o'tadigan temir yo'l tarmog'i mavjud. Shu bilan birga, avtomobil yo'llari tarmog'i ham rivojlangan.


2023- yil yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **3 832,1** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **100,6** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **22,5** %ni tashkil qilmoqda.



*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*








## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

O'sish  
sur'ati, %da



Xizmatlar  
hajmi,  
mlrd.  
so'm



Transport xizmatlari (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	113,6	100,5
Olmaliq shahar	264,0	107,6
Angren shahar	253,6	103,2
Bekobod shahar	219,1	110,2
Ohangaron shahar	61,0	100,1
Chirchiq shahar	303,1	101,5
Yangiyo'l shahar	161,3	99,2
Oqqo'rg'on tumani	77,0	100,9
Ohangaron tumani	64,5	107,4
Bekobod tumani	112,2	107,4
Bo'stonliq tumani	217,5	109,7
Bo'ka tumani	80,2	102,0
Quyichirchiq tumani	182,5	99,2
Zangiota tumani	205,9	107,2
Yuqori Chirchiq tumani	281,9	106,9
Qibray tumani	287,7	100,7
Parkent tumani	192,6	107,0
Piskent tumani	95,9	97,9
O'rta Chirchiq tumani	103,3	107,8
Chinoz tumani	134,4	104,0
Yangiyo'l tumani	257,6	99,6
Toshkent tumani	163,2	105,1




Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


2023- yil yanvar-iyul oylarida avtomobil transporti xizmatlari hajmi **3 613,1** mlrd. so'mni tashkil etdi, ularning o'sishi 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,0** %ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **21,2** %ni tashkil qilmoqda.




*O'sish sur'ati,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-iyul)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **675,1** mlrd. so'mga oshdi va **2 531,0** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **14,9** %ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **124,3** %ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati,  
%da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm



**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, %da**  
(2023- yil yanvar-iyul)



1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	75,1	105,7
Olmalik shahar	282,5	125,2
Angren shahar	155,0	108,6
Bekobod shahar	119,4	116,0
Ohangaron shahar	35,6	105,3
Chirchiq shahar	266,9	126,8
Yangiyo'l shahar	82,9	104,4
Oqqo'rg'on tumani	46,1	106,1
Ohangaron tumani	26,0	113,0
Bekobod tumani	134,0	113,1
Bo'stonliq tumani	227,4	125,4
Bo'ka tumani	43,1	107,3
Quy Chirchiq tumani	78,1	104,4
Zangiota tumani	275,4	128,8
Yuqori Chirchiq tumani	72,2	112,5
Qibray tumani	269,7	126,0
Parkent tumani	79,5	112,6
Piskent tumani	40,8	103,0
O'rta Chirchiq tumani	33,9	113,5
Chinoz tumani	98,9	109,5
Yangiyo'l tumani	50,4	104,8
Toshkent tumani	38,1	110,6

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %da (2023- yil yanvar-iyul)



## O'sish sur'ati, %da



## Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm





## TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	20,3	114,1
Olmaliq shahar	27,2	122,1
Angren shahar	27,8	117,2
Bekobod shahar	17,0	125,2
Ohangaron shahar	9,1	113,6
Chirchiq shahar	44,5	115,3
Yangiyo'l shahar	8,3	112,6
Oqqo'rg'on tumani	19,1	114,5
Ohangaron tumani	18,8	121,9
Bekobod tumani	28,6	122,0
Bo'stonliq tumani	58,2	124,6
Bo'ka tumani	18,5	115,8
Quy Chirchiq tumani	21,4	112,7
Zangiota tumani	44,2	121,7
Yuqori Chirchiq tumani	24,0	121,3
Qibray tumani	37,8	114,4
Parkent tumani	23,7	121,5
Piskent tumani	15,2	111,1
O'rta Chirchiq tumani	31,9	122,4
Chinoz tumani	28,8	118,1
Yangiyo'l tumani	27,8	113,1
Toshkent tumani	32,9	119,3

2023- yilning yanvar-iyul oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o'sishi Bekobod shahar (**25,2** %), Bo'stonliq tumani (**24,6** %), O'rta Chirchiq tumani (**22,4** %) hamda Olmaliq shahar (**22,1** %)da qayd etildi.


Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o'sishi Piskent tumanida kuzatildi – **11,1** %.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)

O'sish sur'ati,  
%da




Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	7,0	99,3
Olmalik shahar	25,6	115,9
Angren shahar	24,2	111,2
Bekobod shahar	14,5	118,8
Ohangaron shahar	4,8	100,1
Chirchiq shahar	98,5	109,4
Yangiyo'l shahar	14,6	106,9
Oqqo'rg'on tumani	4,2	108,7
Ohangaron tumani	2,8	115,7
Bekobod tumani	5,1	115,8
Bo'stonliq tumani	7,2	118,2
Bo'ka tumani	5,5	99,9
Quyichirchiq tumani	6,6	98,9
Zangiota tumani	36,6	115,5
Yuqori Chirchiq tumani	11,3	115,2
Qibray tumani	55,3	108,6
Parkent tumani	10,5	115,3
Piskent tumani	3,0	98,4
O'rta Chirchiq tumani	3,0	116,2
Chinoz tumani	6,5	112,1
Yangiyo'l tumani	3,8	107,3
Toshkent tumani	12,2	113,2

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-iyul)

**O'sish sur'ati,  
%da**




**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**




Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Nurafshon shahar	13,8	102,0
Olmalik shahar	22,0	109,2
Angren shahar	15,3	104,8
Bekobod shahar	18,7	111,9
Ohangaron shahar	3,1	101,6
Chirchiq shahar	37,2	119,0
Yangiyo'l shahar	8,6	100,7
Oqqo'rg'on tumani	3,5	102,4
Ohangaron tumani	1,0	109,0
Bekobod tumani	3,1	109,1
Bo'stonliq tumani	78,0	111,4
Bo'ka tumani	2,0	103,5
Quyichirchiq tumani	1,9	100,7
Zangiota tumani	95,9	118,8
Yuqori Chirchiq tumani	8,3	108,5
Qibray tumani	21,8	118,2
Parkent tumani	2,7	108,6
Piskent tumani	1,6	99,3
O'rta Chirchiq tumani	15,0	109,4
Chinoz tumani	13,8	105,6
Yangiyo'l tumani	15,9	101,1
Toshkent tumani	86,9	117,6



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-iyul)



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2023- yil yanvar-iyul)



■ Hajm, mlrd. so'm

● O'sish sur'ati, %da




Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
<b>Toshkent viloyati <sup>1)</sup></b>	<b>17 006,7</b>	<b>107,6</b>
<i>shaharlar:</i>		
Nurafshon	514,8	103,7
Olmaliq	1 237,4	111,0
Angren	1 110,4	106,5
Bekobod	843,8	113,7
Ohangaron	328,1	103,3
Chirchiq	1 379,2	104,7
Yangiyo'l	712,2	102,3
<i>tumanlar:</i>		
Oqqo'rg'on	445,4	104,1
Ohangaron	260,7	110,8
Bekobod	517,4	110,9
Bo'stonliq	1 107,0	113,2

<sup>1)</sup> hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda



Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-iyul)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, %da
Bo'ka	474,4	105,3
Quyichirchiq	400,8	102,4
Zangiota	1 693,9	110,6
Yuqorichirchiq	740,8	110,3
Qibray	1 397,1	103,9
Parkent	659,0	110,4
Piskent	258,0	101,0
O'rta Chirchiq	592,5	111,3
Chinoz	559,4	107,3
Yangiyo'l	781,8	102,7
Toshkent	992,6	108,4

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga  
ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari  
(yanvar-iyul)**


2023- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 656,3** ming so'mga yetdi. 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **105,6** %ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 787,6** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati,  
%da**




**Xizmatlar hajmi,  
ming. so'm**



2023- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha bu ko'rsatkich Zangiota tumanida **10 088,6** ming so'mdan Ohangaron tumanida **2 378,8** ming so'mgachani tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-iyul)





**2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

**30 116 birlik**

**3 550 birlik**

2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining kamayishi

2022- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

**89,5 %**

**2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**2023- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari**  
*(yanvar-iyul)*

*O'sish sur'atlari,  
%da*



*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**  
**Tel.: 71-202-86-72**